

“Xitoy – Markaziy Osiyo” tashqi ishlar vazirlarining birinchi uchrashuvi to‘g‘risida

2020-yilning 16-iyul kuni O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov videokonferensiya shaklida bo‘lib o‘tadigan “Xitoy – Markaziy Osiyo” birinchi vazirlar uchrashuvida ishtirok etadi. Bu haqda vazirlik matbuot xizmati ma’lum qilgan.

Tadbirda, shuningdek, Xitoy Xalq Respublikasi tashqi ishlar vaziri Van I, Qirg‘iziston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Chingiz Aydarbekov, Qozog‘iston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Muxtar Tleuberdi, Tojikiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Sirojiddin Muhriddin va Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi raisi o‘rinbosari, tashqi ishlar vaziri Rashid Meredov qatnashadi.

Videokonferensiya chog‘ida koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashishda hamkorlik, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash borasidagi munosabatlarni mustahkamlash hamda iqtisodiy o‘sishga ko‘maklashish mexanizmlari bilan bog‘liq dolzarb masalalar muhokama qilinishi ko‘zda tutilgan.

Manba